

O'QUVCHINI YAXSHI KASB EGASI BO'LISHIDA O'QITUVCHI VA OTA-ONANING O'RNI

Dehqonova Manzuma Akramjonqizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Muxtashamova Parvina Zaxitovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

katta o'qituvchisi

a7191987@gmail.com

ORCID: 0009-0005-4030-0803

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarning kelajakda malakali mutaxassis bo'lib yetishishida o'qituvchi va ota-onaning tutgan o'rnini tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida oila muhiti, ta'lim tizimi hamda pedagogik yondashuvlarning o'quvchining kasbiy shakllanishiga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, o'qituvchi va ota-ona hamkorligining yoshlarning kasb tanlash jarayoniga ijobiy ta'siri ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'quvchilarning muvaffaqiyatli kasb egasi bo'lishida nafaqat ta'lim tizimi, balki oilaviy tarbiya ham muhim omil hisoblanadi. Maqolada ushbu omillarning o'zaro bog'liqligi va hamkorligi orqali yoshlarning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, o'qituvchi, ota-ona, o'quvchi, kasb tanlash, pedagogika, rivojlanish, hamkorlik

Annotation: This article examines the role of teachers and parents in shaping students into successful professionals. The research analyzes the influence of family environment and educational institutions on the development of students' professional skills. It also highlights the importance of cooperation between teachers and parents in guiding young people toward choosing appropriate careers.

Keywords: education, upbringing, teacher, parents, student, career choice, pedagogy

KIRISH

Bugungi kunda jamiyat rivoji ko'p jihatdan yosh avlodning bilimli, malakali va mas'uliyatli bo'lib voyaga yetishiga bog'liq. Har bir davlat kelajak taraqqiyotini ta'minlash uchun yoshlarni sifatli ta'lim bilan ta'minlashga katta e'tibor qaratadi. Ayniqsa, o'quvchilarning to'g'ri kasb tanlashi va kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishishi muhim ahamiyatga ega.

O'quvchining kasbiy shakllanishi birgina ta'lim tizimi bilan cheklanmaydi. Bu jarayonda oilaviy muhit, ota-onaning tarbiyasi hamda o'qituvchining pedagogik faoliyati muhim rol o'ynaydi. Bola hayotining dastlabki bosqichida ota-ona uning dunyoqarashini, axloqiy qadriyatlarini va mehnatga bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Keyinchalik esa maktab va oliy ta'lim muassasalari orqali o'quvchi bilim va ko'nikmalarni egallaydi. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchining kelajakdagi muvaffaqiyati ota-ona va o'qituvchining hamkorligiga ham bog'liq. Agar oila va ta'lim muassasasi o'rtasida samarali aloqa mavjud bo'lsa, o'quvchining rivojlanishi yanada samarali bo'ladi. Shu sababli mazkur maqolada o'quvchilarning kasbiy shakllanishida ota-ona va o'qituvchining o'rnini ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ko'plab tadqiqotlar o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida oila va maktab muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bola shaxsining asosiy fazilatlarini avvalo oilada shakllanadi [1; 25-b.]. Ota-ona farzandining qiziqishlari va qobiliyatlarini erta aniqlash orqali uning kelajak kasbini tanlashiga yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, ota-onaning farzand ta'limiga bo'lgan e'tibori o'quvchining o'qishga bo'lgan munosabatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Pedagog olimlarning fikriga ko'ra, o'qituvchi ham o'quvchining rivojlanishida muhim shaxs hisoblanadi. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi sifatida ham faoliyat yuritadi. Uning shaxsiy namunasi, madaniyati va pedagogik mahorati o'quvchilarga kuchli ta'sir ko'rsatadi [2; 48-b.]. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ota-ona va o'qituvchi hamkorligi ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o'quvchining shaxs sifatida shakllanishida oila va maktabning muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Tadqiqotchilarning fikricha, bola hayotining ilk bosqichlarida olgan tarbiya uning butun hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Oila muhitida bola o'zining ilk ijtimoiy tajribalarini orttiradi. U ota-onasi va yaqinlari bilan muloqot jarayonida jamiytdagi axloqiy me'yorlarni o'rganadi. Aynan shu davrda bolada halollik, mas'uliyat, mehnatsevarlik va sabr-toqat kabi muhim fazilatlar shakllanadi.

Ko'plab pedagog olimlar oila muhitining tarbiyaviy ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Ularning fikricha, ota-onaning farzandga bo'lgan munosabati va tarbiyaviy yondashuvi o'quvchining shaxs sifatida shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ta'lim muassasasi ham o'quvchining rivojlanishida muhim o'rin tutadi. O'qituvchi o'quvchilarga bilim berish bilan birga, ularni tarbiyalash vazifasini ham bajaradi. O'qituvchining pedagogik mahorati, shaxsiy namunasi va o'quvchilarga bo'lgan munosabati ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchining kelajak kasbini tanlashida ham o'qituvchining roli katta. Tajribali pedagog o'quvchilarning qaysi sohada qobiliyati borligini aniqlab, ularni tegishli yo'nalishlarda rivojlantirishga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida ota-ona va o'qituvchi hamkorligi muhim omillardan biri hisoblanadi. Agar ota-ona va o'qituvchi o'rtasida samarali muloqot mavjud bo'lsa, o'quvchining ta'lim jarayoni yanada samarali bo'ladi. Hozirgi zamonaviy jamiyatda ota-onalarning bandligi ortib borayotganligi sababli ayrim hollarda farzandlarga yetarli darajada e'tibor berilmayotgani kuzatilmoqda. Ko'plab ota-onalar ish faoliyati yoki boshqa ijtimoiy majburiyatlar bilan band bo'lib, farzandining ta'lim jarayoni va psixologik holatiga yetarli darajada vaqt ajrata olmaydi. Natijada o'quvchilar o'zlarining ma'naviy va ruhiy qo'llab-quvvatlanishini ko'proq o'qituvchilardan kutishga boshlaydi.

Biroq o'qituvchi ham jamiyatning bir a'zosi sifatida o'zining shaxsiy hayoti, oilaviy mas'uliyatlari va kundalik muammolariga ega. Shu sababli u har doim har bir o'quvchining ruhiy holati bilan individual tarzda shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lavermaydi. Bu holat ayrim o'quvchilarda "menga hech kim suyanib bo'la olmaydi" degan fikrning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bunday psixologik holat esa o'quvchining bilim olish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki inson o'zini qo'llab-quvvatlanayotganini his qilganida uning

o'qishga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasi ortadi. Aksincha, e'tibor yetishmasligi o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini kamaytiradi va ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishining pasayishiga olib keladi.

Shu sababli ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlik o'quvchilarning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Ota-onalar farzandining ta'lim jarayoniga faol qiziqish bildirishi, o'qituvchilar esa o'quvchilarga nafaqat bilim, balki ma'naviy qo'llab-quvvatlash ham berishi zarur. Hozirgi davrda texnologiyalar rivojlanishi, ish sur'atlarining tezlashuvi hamda turli ijtimoiy omillar ota-onalarning kundalik hayotini yanada band qilib qo'yimoqda. Natijada ayrim oilalarda farzand bilan muloqot qilishga yetarli vaqt ajratilmaydi. Bola uchun esa ota-onaning e'tibori, mehr-muhabbati va ruhiy qo'llab-quvvatlashi juda muhim hisoblanadi. Agar bola o'zini oilada tushunilgan va qo'llab-quvvatlangan deb his qilsa, u o'ziga bo'lgan ishonchni rivojlantiradi hamda o'qishga bo'lgan qiziqishi ortadi.

Aksincha holatda, ya'ni ota-onaning e'tibori yetishmaganda o'quvchi o'zini yolg'iz his qilishi mumkin. Bunday paytda u o'ziga motivatsiya beradigan, yo'l ko'rsatadigan inson sifatida o'qituvchiga murojaat qiladi. O'qituvchi o'quvchi uchun nafaqat bilim manbai, balki ma'naviy tayanch ham bo'lishi mumkin. Shu sababli ko'plab o'quvchilar o'qituvchidan qo'llab-quvvatlash va ruhiy yordam kutadi.

Shu bilan birga, o'qituvchining ham o'z hayoti va mas'uliyatlari mavjudligini unutmaslik kerak. Har bir pedagog ko'plab o'quvchilar bilan ishlaydi va ularning har biriga alohida vaqt ajratish imkoniyati har doim ham bo'lavermaydi. O'qituvchi ta'lim berish jarayonida katta mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi, ammo u barcha o'quvchilarning shaxsiy muammolarini to'liq hal qilib berishi ham qiyin.

Natijada ayrim o'quvchilarda "menga hech kim yordam bermaydi" yoki "menga hech kim e'tibor bermaydi" degan fikr paydo bo'lishi mumkin. Bu esa o'quvchining ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Psixologlarning fikricha, o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchi pasayganida uning bilim olishga bo'lgan qiziqishi ham kamayadi. O'quvchi dars jarayonida faol bo'lmaydi, savollar bermaydi va o'z fikrini erkin ifoda etishdan tortinadi.

Bunday holatlarning oldini olish uchun ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash zarur. Ota-onalar farzandining o'qish jarayoniga qiziqish bildirishi, uning muvaffaqiyatlari va qiyinchiliklariga befarq bo'lmasligi kerak. Shu bilan birga, o'qituvchilar ham o'quvchilarning ruhiy holatiga e'tibor qaratib, ularni rag'batlantirib borishi muhimdir.

Agar oila va maktab o'rtasida o'zaro hamkorlik mavjud bo'lsa, o'quvchi o'zini ikki tomondan qo'llab-quvvatlangan deb his qiladi. Bu esa uning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi hamda kelajakda yaxshi kasb egasi bo'lib yetishishiga yordam beradi. Shuningdek, O'quvchining kelajakda yetuk kasb egasi bo'lib shakllanishida oila va maktabning tutgan o'rni beqiyos ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, farzandning shaxs sifatida rivojlanishi, kasbiy qobiliyatlarini aniqlash va ularni maksimal darajada rivojlantirish jarayonida ota-ona va o'qituvchining roli bir-birini to'ldiradi. Ota-onaning e'tibori va mehr-muhabbati, ularning farzandining qobiliyatlarini kuzatib borishi va rag'batlantirishi bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bilan birga, o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki pedagogik psixolog sifatida ham o'quvchining qiziqishlari, intellektual va kasbiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, agar oila va maktab o'rtasida samarali hamkorlik

bo'lsa, o'quvchilarda o'z kasbiga bo'lgan ishtiyoq, mas'uliyat hissi va bilim olishga qiziqish sezilarli darajada oshadi.

Ota-onaning roli shaxsiy rivojlanishdan tashqari, kasbiy tanlovda ham juda muhim. Kichik yoshdan boshlab farzandning qiziqishlarini kuzatib, ularni to'g'ri yo'naltirish, turli faoliyat turlariga jalb qilish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash orqali ota-ona o'quvchining kelajak kasbini tanlashida bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, oilaning pedagogik ahamiyati faqat mehr-muhabbat bilan cheklanmaydi, balki u tarbiyaviy yondashuv, bilimga rag'batlantirish, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish orqali ham namoyon bo'ladi. Masalan, ota-onalar farzandlarini uy vazifalarini bajarishga, o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga, vaqtni to'g'ri rejalashtirishga rag'batlantirishi, ularning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlashi kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatga tayanch bo'ladi.

O'qituvchi esa o'quvchining intellektual va kasbiy jihatdan rivojlanishida asosiy yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Tajribali pedagog bolaning qobiliyatini aniqlab, uni mos yo'nalishda rivojlantirishga harakat qiladi. Shu bilan birga, o'qituvchi o'quvchida o'z-o'zini boshqarish, mas'uliyat, mehnatsevarlik, ijodkorlik kabi fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi. O'qituvchi faoliyati nafaqat dars bilan cheklanib qolmaydi, balki u o'quvchining ruhiy holati, motivatsiyasi, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yo'naltiriladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining pedagogik yondashuvi, shaxsiy namunasi va doimiy rag'batlantirishi o'quvchining bilim olishga bo'lgan qiziqishini va kasb tanlashga bo'lgan mas'uliyatini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari ota-ona va o'qituvchi hamkorligining ahamiyatini alohida ta'kidladi. Agar ota-ona va pedagog bir-biri bilan doimiy aloqada bo'lsa, o'quvchining bilim olish jarayoni samarali bo'ladi, u o'zini qo'llab-quvvatlangan va ishonchli his qiladi. Bu esa o'quvchida psixologik barqarorlik, ijodiy fikrlash va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Shu tariqa, ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi faol muloqot va hamkorlik o'quvchining kelajak kasbini tanlash, uni yetuk mutaxassis sifatida shakllantirish jarayonini tezlashtiradi va sifatini oshiradi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ayrim oilalarda ota-onaning bandligi, ish bilan yoki boshqa shaxsiy sabablar bilan farzandga yetarli e'tibor bermasligi natijasida o'quvchilarda motivatsiya pasayishi kuzatiladi. Bunday hollarda o'quvchi o'zini yolg'iz his qiladi va ko'pincha o'qituvchidan ruhiy qo'llab-quvvatlash kutadi. Shu bilan birga, o'qituvchi ham cheklangan vaqt va mas'uliyatga ega bo'lganligi sababli, har bir o'quvchiga doimiy e'tibor qaratish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Natijada o'quvchida "menga hech kim suyanib bo'la olmaydi" degan tushuncha paydo bo'lishi mumkin. Bu holat esa ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishi va kasbiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, ota-ona va o'qituvchi hamkorligining uzluksiz va samarali bo'lishi juda

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz lozimki, O'quvchining motivatsiyasini oshirishda ota-ona va o'qituvchining birgalikdagi sa'y-harakatlari katta ahamiyatga ega. Ota-ona farzandining qiziqishlarini aniqlab, unga turli imkoniyatlar yaratishi, o'qituvchi esa bilim va tajribasi bilan o'quvchining qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishi o'quvchining kelajak kasbini tanlashda asosiy omil hisoblanadi. Shuningdek, ota-ona va pedagogning hamkorligi o'quvchida mas'uliyat hissini mustahkamlaydi, vaqtni to'g'ri boshqarish va maqsadlarni belgilash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa o'quvchining kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki,

o'quvchining kasbiy shakllanishi nafaqat bilim olish, balki axloqiy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs sifatida rivojlanishini ham talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlik shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy omilidir. Ota-ona farzandini rag'batlantirsa, ularni darsga jalb qilsa, o'qituvchi esa pedagogik tajriba orqali uni qo'llab-quvvatlasa, natijada o'quvchi o'z kasbini sevish va unga mas'uliyat bilan yondashish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarda muvaffaqiyat hissi va o'z kasbga bo'lgan qiziqishni shakllantirish uchun ota-ona va o'qituvchi birgalikdagi motivatsion yondashuvlar muhimdir. Masalan, farzand o'z muvaffaqiyati uchun ma'lum maqsadlarni belgilashga, kichik muvaffaqiyatlarni qadrlashga o'rgatiladi. Shu bilan birga, pedagog tomonidan bilimga bo'lgan qiziqish va ijobiy rag'batlantirish bolada o'z kasbini tanlashda ishonchni oshiradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bunday yondashuv o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy qarorlar qabul qilish va mas'uliyatli xatti-harakatlarni shakllantiradi.

Natijada, o'quvchining kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati bir necha omillarga bog'liq bo'ladi: ota-onaning e'tibori va tarbiyaviy yondashuvi, o'qituvchining pedagogik tajribasi va shaxsiy namunasi, shuningdek ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi samarali hamkorlik. Shu tarzda, o'quvchi bilimli, mas'uliyatli, mehnatsevar va kasbiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, zamonaviy sharoitda ota-onaning farzand tarbiyasida yetarli vaqt ajrata olmasligi, ish bilan bandligi yoki boshqa ijtimoiy omillar tufayli o'quvchilarda ruhiy bo'shliq paydo bo'lishi mumkin. Bu holat o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini pasaytiradi va kelajak kasbini tanlashdagi qarorlarini murakkablashtiradi. Shu sababli, pedagoglar nafaqat dars beruvchi sifatida, balki ruhiy qo'llab-quvvatlovchi, motivator va shaxsiy maslahatchi sifatida ham faol bo'lishi muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi samarali hamkorlik va muvozanatli pedagogik yondashuv o'quvchining kasbiy shakllanishida, motivatsiyasini oshirishda, shuningdek uning shaxs sifatida rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ota-ona va pedagog birgalikda o'quvchida bilimga qiziqish, mehnatsevarlik, mas'uliyat, ijodkorlik va mustaqil fikrlash kabi fazilatlarni shakllantirib, ularni kelajakda yetuk kasb egasi bo'lishga tayyorlaydi. Shu sababli, o'quvchining kasbiy muvaffaqiyatiga erishishda oilaviy tarbiya va ta'lim muassasasi pedagogik yondashuvi integratsiyasi asosiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Avloniy A. Tarjimai xol. Tanlangan asarlar. 2-jild. Toshkent: "Ma'naviyat", 1998. 288-bet.
2. Munavvarqori A. Qizil O'zbekiston, 1927 yil, 7 iyun. Ziyo.uz.
3. Qosimov B. Milliy uyg'onish. Toshkent: "Sharq", 2004. 53-bet.
4. Toshqulov J. Yosh xivaliklar: siyosiy qarashlarining tadrijiy rivojlanishi. // Xalq va demokratiya, 1992, 3-4-son.
5. Behbudiy B. Behbudiy kutubxonasi. "Oyina" jurnali 26 aprel, №27. Tanlangan asarlar. Jild-II. Toshkent: Akademnashr, 2018. 14-bet.
6. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. Toshkent, 2005. 213-bet.
7. Muhammadjonova L. Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. Toshkent: O'zMU, 2007.

8. Mahmudova G. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. Toshkent: Davr-press, 2006.
9. Niyozov G., Axmedov Q., Toji Q. Sharq allomalari va ma'rifatparvar adiblarining barkamol avlod tarbiyasiga oid ma'naviy-axloqiy qarashlari. Toshkent: 2005.
10. Zakhitovna, M. P. (2023). THE IMPORTANCE OF PRINCIPLES IN TEACHING ENGLISH TO DIFFERENT AGE GROUPS. *European International Journal of Pedagogics*, 3(06), 85-87.